

**TARIX DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV,
INTERFAOL METODLAR VA TA’LIM VOSITALARIDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Turdimatov G‘ayratjon Abdushukur o‘g‘li

*NamDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) yo‘nalishi 2-
bosqich magistranti turdimatovgayrat06@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21158759>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix darslarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Interfaol metodlardan foydalanish orqali ta’lim jarayonini faollashtirish, o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish hamda bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarix ta’limi, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, ta’lim vositalari, tarixiy tafakkur, mustaqil fikrlash, multimedia resurslari, tarixiy manbalar, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchi faolligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности внедрения компетентностного подхода на уроках истории для формирования у учащихся исторического мышления, аналитических способностей, умения делать самостоятельные выводы и гражданской позиции. Анализируются вопросы активизации учебного процесса посредством использования интерактивных методов, повышения интереса учащихся к уроку, а также развития навыков применения знаний в практических ситуациях.

Ключевые слова: историческое образование, компетентностный подход, интерактивные методы, средства обучения, историческое мышление, самостоятельное мышление, мультимедийные ресурсы, исторические источники, педагогические технологии, активность учащихся.

Abstract. This article highlights the possibilities of implementing a competency-based approach in history lessons, fostering historical thinking, analytical thinking, independent conclusions, and the formation of a civic position among students. Issues of activating the educational process through the use of interactive methods, increasing students' interest in the lesson, and developing skills for applying knowledge in practical situations are analyzed.

Keywords: historical education, competency-based approach, interactive methods, educational tools, historical thinking, independent thinking, multimedia resources, historical sources, pedagogical technologies, student activity.

Kirish. Bugungi globallashuv jahon ta’limi oldiga fuqarolarni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlarga samarali tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Ushbu vazifalarning bajarilishida sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim qilish

orqali hal qilinadi. Yuqori sifatli ta’lim xizmatlari mehnat bozoriga raqobatga bardoshli, kompetentli kadrlarning yetkazib berilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiyalash, “zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar etkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish” innovatsion o‘qitish tamoyillari pedagogik amaliyotga faol tatbiq qilinayotgan mavjud sharoitida tarix fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish imkonini beradi.

Tarix fani umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning o‘tmishni tushunishi, milliy o‘zlikni anglashi, tanqidiy fikrlash va analitik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” (2017–2021) va “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasidagi qarorlar, tarix o‘qitish metodikasini zamonaviy talablarga moslashtirishga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqola tarix o‘qitish metodikasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini sinchkov tahlil qiladi va O‘zbekistondagi so‘nggi ta’lim qarorlarining ta’sirini ko‘rib chiqadi.

Asosiy qism. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida tarix fanida shakllantiriladigan asosiy kompetensiyalar bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Avvalo, axborot bilan ishlash kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi tarixiy matn, xarita, jadval, rasm, statistik ma’lumot, hujjat va boshqa manbalardan kerakli axborotni topishi, saralashi, tahlil qilishi va undan foydalanishi lozim. Ikkinchidan, kommunikativ kompetensiya tarix darslarida o‘z fikrini ravon ifodalash, guruhda ishlash, bahs-munozarada ishtirok etish, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilish orqali rivojlanadi [1]. Uchinchidan, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi tarixiy tajriba asosida jamiyat, davlat, qonun, burch, mas’uliyat, vatanparvarlik va bag‘rikenglik tushunchalarini chuqur anglashni nazarda tutadi. To‘rtinchidan, tarixiy tafakkur kompetensiyasi voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, davrlar xususiyatini tushunish, tarixiy vaqt va makon bilan ishlash, turli manbalarni solishtirish va dalillarga tayangan holda baho berishni o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda kompetensiyaviy yondashuv tarix fanining ichki mohiyatiga juda mos keladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tarixiy tafakkur kompetensiyasini shakllantirish tarix ta’limining eng markaziy vazifasidir [2]. O‘quvchi tarixiy voqea haqida bilishi bilan birga, nima uchun aynan shu voqea yuz berganini, uning oqibatlari nimalardan iborat bo‘lganini, u boshqa hududlar yoki davrlar bilan qanday bog‘liqlikda ekanini tushuna olishi kerak. Masalan, bir davlatning yuksalishi yoki inqirozi haqida gap ketganda, o‘quvchi buning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillarini ajrata bilsa, tarixni yuzaki emas, mazmunan o‘zlashtirgan bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi tayyor xulosa berishdan ko‘ra, o‘quvchilarga savollar orqali yo‘l ochib berishi samaraliroqdir. Nega, qanday, qaysi omillar tufayli, natijada nima yuz berdi kabi savollar tarixiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu usul o‘quvchini faollikka

undaydi, chunki u tayyor javobni kutmaydi, o‘zi izlaydi, tahlil qiladi va xulosaga keladi.

Interfaol metodlar aynan kompetensiyaviy yondashuvni hayotga tatbiq etishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Interfaol metodlarning mohiyati o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlash, ularni mustaqil va hamkorlikda fikrlashga jalb qilish, bilimni tayyor shaklda emas, faol faoliyat orqali egallashdan iborat. Tarix darslarida interfaol metodlar qo‘llanilganda dars bir yoqlama ma’ruza emas, balki o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligiga asoslangan muloqot maydoniga aylanadi. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, e’tiborini jamlaydi, bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Eng muhimi, interfaol metodlar tarixni eshitiladigan fan emas, muhokama qilinadigan, tahlil qilinadigan va his etiladigan fan darajasiga olib chiqadi.

Masalan, aqliy hujum metodi tarix darslarida juda qulay hisoblanadi. Bu metod orqali biror mavzu yuzasidan o‘quvchilarning dastlabki tasavvurlari aniqlanadi, muammoni turli tomonlama ko‘rish imkoniyati yaratiladi. O‘qituvchi bir savol beradi va o‘quvchilar navbatma-navbat o‘z fikrlarini aytadilar. Bu yerda asosiy maqsad to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni darhol baholash emas, balki ko‘proq fikr yig‘ishdir. Tarix darsida masalan, bir davlatning qulash sabablari, ma’lum bir islohotning ahamiyati yoki tarixiy shaxsning faoliyati haqida aqliy hujum uyushtirilsa, o‘quvchilar fikrlari jamlanib, keyinchalik ular tahlil qilinadi. Shu tariqa o‘quvchi o‘zini darsning faol ishtirokchisi sifatida his qiladi. Bunday metod o‘quvchilarning erkin fikrlashini, tezkor javob berishini va darsga psixologik tayyorlanishini kuchaytiradi.

Boshqa bir samarali usul kichik guruhlarda ishlash metodidir. Tarix darslarida guruhlar bilan ishlash o‘quvchilarda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmasini rivojlantiradi. Har bir guruhga alohida topshiriq berilishi mumkin: biri tarixiy hujjatni tahlil qiladi, ikkinchisi xarita bilan ishlaydi, uchinchisi voqeaning sabablarini aniqlaydi, to‘rtinchisi oqibatlarini yoritadi. So‘ngra guruhlar o‘z natijalarini taqdim etadilar. Bunda o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi, fikr almashadi, o‘z nuqtayi nazarini himoya qiladi [3]. Tarix fanida ko‘plab mavzular murakkab va ko‘p qirrali bo‘lgani uchun guruhli ishlar ularni bo‘lib o‘rganish, keyin esa yagona tizimga keltirish imkonini beradi. Bu usul ayniqsa katta hajmdagi mavzularni o‘zlashtirishda, tarixiy jarayonlarning ko‘p omilliligini anglashda va taqdimot ko‘nikmalarini shakllantirishda foydalidir.

Munozara metodi tarix darslari uchun ayniqsa tabiiy va zarur metodlardan biridir. Sababi tarixda ko‘plab voqealar va shaxslar yuzasidan turli qarashlar mavjud bo‘ladi. O‘quvchilarni aynan shu turfa qarashlar bilan tanishtirish, ularni asosli fikr bildirishga o‘rgatish juda muhim. Munozara jarayonida o‘quvchilar ma’lum mavzu yuzasidan ikki yoki undan ortiq pozitsiyani himoya qilishi mumkin. Masalan, ma’lum bir islohotning ijobiy va salbiy tomonlari, tarixiy shaxs faoliyatining bahosi yoki urushlarning jamiyatga ta’siri yuzasidan bahs tashkil etiladi. Bunday dars o‘quvchiga dalil tanlash, fikrni mantiqan asoslash, tinglash madaniyati va bahs etikasi kabi muhim ko‘nikmalarni beradi. Eng asosiysi, munozara tarixiy voqelikka bir

yoqlama qarashning oldini oladi va o’quvchini mustaqil xulosa chiqarishga o’rgatadi.

Keys-stadi usuli tarix ta’limida muammoli vaziyatlar asosida fikrlashni rivojlantiradi. Bu metodda o’quvchilarga ma’lum tarixiy voqea, qaror yoki inqirozli vaziyat tavsifi beriladi va ular shu holatni tahlil qilib, sabablarini aniqlashlari, ehtimoliy yechimlar taklif qilishlari lozim bo’ladi. Masalan, bir davlatda ichki nizolar kuchaygan bo’lsa, o’quvchilar hukmdor maslahatchilari sifatida qanday choralar ko’rish kerakligini aytishi mumkin. Yoki diplomatik munosabatlar keskinlashgan vaziyatda qanday yo’l tutish to’g’ri bo’lishi muhokama qilinadi. Bu usul tarixiy bilimni amaliy fikrlash bilan bog’laydi. O’quvchi o’tmishdagi hodisalarni faqat bilib qolmay, ularni boshqaruv, siyosat, jamiyat va inson omili nuqtayi nazaridan tahlil qilishni o’rganadi. Bu esa yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Klaster, konseptual xarita va jadval asosida ishlash metodlari ham tarix fanida keng qo’llanishi mumkin. Tarixiy voqealar ko’p hollarda murakkab bog’lanishlarga ega bo’ladi. Shu sababli ma’lumotlarni tizimlashtirish uchun grafik ko’rinishdagi usullar juda qulay. Masalan, ma’lum bir davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini klaster ko’rinishida tasvirlash o’quvchiga mavzuni yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi [4]. T-taqdimot jadvali orqali ikki davlatni solishtirish, Venn diagrammasi orqali ikki davr yoki ikki tarixiy shaxs faoliyatidagi o’xshash va farqli jihatlarni aniqlash mumkin. Bunday metodlar o’quvchilarning tahliliy fikrlashini, mantiqiy bog’lanishlarni ko’rish qobiliyatini va ma’lumotni strukturali bayon eta olish malakasini kuchaytiradi.

Tarix darslarida muammoli ta’lim elementlaridan foydalanish ham kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Muammoli vaziyat yaratilganda o’quvchi tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, bilishga ehtiyoji yuzaga kelgan izlanuvchiga aylanadi. O’qituvchi masalan, biror tarixiy hodisaga oid qarama-qarshi ma’lumotlar, kutilmagan natijalar yoki murakkab savolni o’rtaga tashlashi mumkin. O’quvchilar bu muammoni hal qilish uchun darslik, manbalar, xaritalar va o’z oldingi bilimlariga tayangan holda izlanadilar. Muammoli o’qitish o’quvchining fikrini uyg’otadi, bilishga bo’lgan ichki motivatsiyasini oshiradi va tarixiy hodisalarni chuqur o’rganishga undaydi. Bu metod ayniqsa sabab-oqibatli bog’lanishlarni aniqlashda, tarixiy qarorlarning murakkabligini tushunishda va o’z nuqtayi nazarini asoslashda foydali hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, tarix fanini o’qitishda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarning tarixiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarish hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix ta’limida aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, munozara, keys-stadi, klaster va muammoli ta’lim kabi metodlarning qo’llanilishi o’quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi hamda bilimlarni chuqur va ongli o’zlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O’zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tarix fanini o’qitish metodikasini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois tarix o’qituvchilari dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali

qo'llashi, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limni amaliyotga izchil tatbiq etishi zarur. Natijada tarix ta'limining sifati oshib, o'quvchilarda tarixiy ong, milliy qadriyatlarga hurmat va zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nomonov S., Ergashbayev Sh. O'zbekistonda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik texnologiyalarini qo'llash. Shokh Articles Library, 2025. – B. 19.
2. Abdullayeva N. O'zbekiston tarixini o'qitishda metodologik yondashuvlar turlari. Yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti, 2025.– B. 173.
3. Boboyev B. Tarix ta'limida metodik usullar tizimi. Global Science Review, 2025. – №. 1. – P. 345.
4. 1 Jonibekov D., Toshtemirov D. Aqliy bilish darajasini aniqlashda didaktik o'yin metodlaridan foydalanish usullari. Scientific progress, 2021. – №.2. – C. 1056.